



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI
TOYLOQ TUMANI HOKIMINING
QARORI**

Toyloq sh., A.Temur ko‘chasi, 22-uy.

2022 - yil 14 - may

153-7-104-Q/22

Toyloq tuman hokimligi

**Samarqand viloyati hokimining 2022-yil 30-apreldagi “O‘zbekiston
Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-apreldagi “Ramazon hayitini
nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-231-sonli qarori ijrosini ta‘minlash haqida”gi
202-7-0-Q/22-sonli qarori ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida**

Muborak Ramazon hayiti mohiyatida mujassam bo‘lgan xayru saxovat, mehr-oqibat, insonparvarlik singari azaliy an‘ana va qadriyatlarimizni asrab-avaylash hamda keng targ‘ib etish, halqimizning ezgu niyat va orzu-intilishlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1 Samarqand viloyati hokimining 2022-yil 30-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-apreldagi “Ramazon hayitini nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-231-sonli qarori ijrosini ta‘minlash haqida”gi 202-7-0-Q/22-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

O‘zbekiston Musulmonlar idorasining 2022-yil Ramazon hayitining birinchi kuni 2-may – dushanba kuniga to‘g‘ri kelishi haqida qabul qilgan qarorini inobatga olib, mamalakatimizda 2022-yil 2-may Ramazon hayiti bayrami sifatida keng nishonlanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining ayrim qarorlari ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan

deb hisoblansin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari J.Xo‘jamurodov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



B.Babonazarov

Toyloq tuman hokimining
2022 yil 14 maydagi
153-7-104-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tuman hokimining o‘z kuchini yo‘qotgan ayrim qarorlari

RO‘YXATI

1. Tuman hokimining 2019-yil 2-iyundagi “Viloyat hokimining 2019-yil 1-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-maydagi “Ramazon hayitini nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-4349-sonli qarori ijrosini ta‘minlash haqida”gi 170-Q-sonli qarori ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida”gi 1744-Q-sonli qarori.

2. Tuman hokimining 2020-yil 23-maydagi “Viloyat hokimining 2020-yil 22-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-maydagi “Ramazon hayitini nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-4721-sonli qarori ijrosini ta‘minlash haqida”gi 75-Q-sonli qarori ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida”gi 197-Q-sonli qarori.

3. Tuman hokimining 2021-yil 12-maydagi “Viloyat hokimining 2021-yil 11-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-maydagi “Ramazon hayitini nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-5110-sonli qarori ijrosini ta‘minlash haqida”gi 91-Q-sonli qarori ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida”gi 221-Q-sonli qarori.